



“DEVONI FONIY”DAGI TATABBU’ VA TAVR G‘AZALLARNING MATNIY-QIYOSIY TAHLILI

Muallif: Mabruk Djurayev¹

Affiliyatsiya: O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Alisher Navoiy nomidagi Davlat adabiyot muzeyi tayanch doktoranti¹

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.20205361>

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Alisher Navoiy ijodining muhim qismi bo‘lgan “Devoni Foni” asarining turli qo‘lyozma nusxalari o‘rganilib, tatabbu’ va tavr g‘azallardagi matniy tafovutlar qiyosiy tahlil qilinadi. Qo‘lyozmalar orasidagi farqlar leksik, morfologik, strukturaviy jihatlar bilan bir qatorda kotib xatolari va poygir xatoliklari bilan ham bog‘liq. Ayni maqolamizda g‘azal va baytlarning mazmuniga ta‘sir qiluvchi leksik tafovutlar tahlilga tortilgan.

Kalit so‘zlar: Alisher Navoiy, “Devoni Foni”, tatabbu’, tavr, poygir, Turk-islom muzeyi, Nuriusmoniya kutubxonasi, Parij milliy kutubxonasi, Tehron universiteti markaziy kutubxonasi, leksik va gramatik tafovut.

Har qanday qo‘lyozma manbalarning nusxalari o‘rtasidagi matniy tafovutlarini aniqlash hamda muallif variantiga yaqin bo‘lgan ishonchli variantini tiklash matnshunoslikning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Shuningdek, asarning nisbatan to‘liq matnini tiklash hamda qo‘lyozmaning tayanch va yordamchi manba nusxalarini aniqlab, tayanch manba matnida yanglish ketgan yoki tushib qolgan so‘z, misra, bayt va g‘azallarni yordamchi manba matni orqali tiklash, to‘ldirish muhim hisoblanadi. Shunday ekan, bugungi kunda Alisher Navoiyning “Devoni Foni”si qo‘lyozma nusxalarini ham aniqlash va ularni qiyosiy tarzda tadqiq etish muhim vazifalardan biridir.

Ayni paytgacha Alisher Navoiyning ko‘plab asarlari ustida matniy tadqiqotlar amalga oshirilgan. Ammo “Devoni Foni”ning qo‘lyozma nusxalari hamda ularning tarkibidagi she‘rlar matniy jihatdan maxsus qiyosiy tadqiq etilmagan.

Devonning Parij milliy kutubxonasidagi 285 raqamli nusxasi qadimiyligi, to‘liqligi, matnlari ravonligi hamda yaxshi saqlanganligi bois tayanch nusxa sifatida tanlab olindi, qolgan nusxalarni esa yordamchi nusxalar etib belgilandi. Yordamchi nusxalar va ularning shartli belgilari quyidagicha:

F-1 –nusxa – Parij milliy kutubxonasidagi 285 raqamli nusxa - tayanch;

F-2 –nusxa – Parij milliy kutubxonasidagi 1345 raqamli nusxa – yordamchi;

T-1 nusxa – Turk-islom muzeyidagi 1952 raqamli nusxa – yordamchi;

T-2 nusxa – Nuriusmoniyadagi 3850 raqamli nusxa – yordamchi;

T-3 nusxa – Hakimo‘g‘li Aliposhsho kolleksiyasidagi 00632 raqamli nusxa – yordamchi;

T-3 nusxa – Lala Ismoil kolleksiyasidagi 00469 raqamli nusxa – yordamchi;

E-1 nusxa – Tehron universitetidagi 2866 raqamli nusxa – yordamchi;



Devonda ikki turli g'azallar uchrashi haqida avvalgi boblarimizda bayon etdik. Birinchisi mashhur fors shoirlari g'azallariga ergashib yozilgan "tatabbu" va "tavr" bo'lsa, ikkinchisi mustaqil ravishda yozilgan "muxtara" va "ixtiro"lardir. Biz devonda g'azal janrining miqdori ko'p ekanligini (554 ta) hisobga olib, ularni ikkiga ajratgan holda matniy-qiyosiy tadqiq etishga qaror qildik. Ayni faslimizda Alisher Foniyning "Devoni Foni"sidan o'rin olgan "tatabbu" va "tavr" g'azallarni matniy-qiyosiy tahlilga tortamiz. Devonning qo'lyozma nusxalarini ko'zdan kechirganimizda ular o'rtasidagi quyidagi matniy tafovutlar ko'zga tashlandi:

- g'azallardagi leksik tafovutlar;
- ko'makchi va bog'lovchilar bilan bog'liq turfaliklar
- bayt va misralarning tushib qolishi;
- g'azallarning tarkibiy jihatdan farqi;
- kotib tomonidan g'ayriixtiyoriy ravishda yo'l qo'yilgan xatoliklar.

Tadqiqotda Alisher Navoiy "Devoni Foni"dagi g'azallarning mazmunini to'liq tushunish hamda tahlil qilish maqsadida O'zbekiston Fanlar akademiyasi O'zbek tili, adabiyoti va folklor instituti tomonidan 2002-yil nashr etilgan 20 jildlik "Alisher Navoiyning Mukammal asarlar to'plami"ning forsiy g'azallar tarjimalaridan keng foydalanildi.

Devonning qo'lyozma nusxalarining matnlarini qiyosiy tadqiq qilganimizda eng ko'p leksik tafovutlarga dush keldik. Ushbu farqlarning ayrimlari manodosh yoki shakldosh so'zlar bilan bog'liq bo'lsa, ayrimlari umuman bir-biriga aloqador bo'lmay, bayt mazmuniga o'z ta'sirini o'tkazgan. Bunday holatda to'g'ri variantni topish, baytlarning mazmun-mohiyatiga asoslangan holda munosib so'zni tanlab olish lozim. Masalan, Xoja Hofiz Sheroziy g'azaliga tatabbu'ning to'rtinchi bayti quyidagicha yozilgan:

F-1: 161b, F-2: 2b va T-1: 24b varaq	T-3: 29b, T-4: 2b varaq
بمقصد گرچه ره دورست اگر آتش رسد از عشق، چو برق آسان توان کردن بگامی قطع منزلها	بمقصد گرچه ره دورست اگر آتش رسد از عشق، چو برق آسا توان کردن بگامی قطع منزلها

*Maqsadga yetmoq yo'li uzoqdir, lekin agar senga ishq o'ti tushsa,
bir qadam tashlab yashin kabi manzilga etmoq mumkindir.*

Ushbu baytdagi "آسان" va "آسا" so'zlari ham fonetik, ham shakl jihatdan o'xshash bo'lsa-da, leksik jihatdan keskin farq qiladi. *آسان* fors tilida "qiyin so'zining antonimi bo'lib, "yengil", "oson" degan ma'noni bildiradi. Baytning asosiy g'oyasi ya'ni "ishq orqali og'ir yo'lning oson bo'lishi" aynan shu so'z bilan asoslangan hamda mazmunan mustahkamlangan.

آسا so'zining esa fors tilida bir nechta ma'nolari mavjud: 1) -dek, kabi; 2) haybat, salobat; 3) zeb-u ziynat;² 4) *آسودن* fe'lining hozirgi-kelasi zamon negizi ham *آسا* – tinchlanmoq, dam olmoq. Bu ma'nolar ichidan "...dek, kabi" shakli baytning mazmuniga ham grammatik, ham mazmun jihatdan to'la mos keladi. Bu baytdagi asosiy ma'ni yashin kabi yengil va oson harakat qilishdir. Shunday ekan, bu ifodani "برق آسا" – "yashin kabi" deb tushunish mazmun jihatidan to'g'ri hisoblanadi. Ushbu baytda *آسا* so'zining qo'llanishi bayt mazmuniga mosdir.

¹ [осон чист? маъний осон - Вожаҷӯ / جوواژه](#)

² [осо чист? маъний осо - Вожаҷӯ / جوواژه](#)

Bizningcha, to'g'ri variant T-3, T-4 nusxalaridagi "Asa" (oso) shakli hisoblanadi. F-1, F-2, T-1 nusxalaridagi "Asan" kotibning fonetik o'xshashlik tufayli yuzaga kelgan xatosi bo'lishi mumkin.

Ayni g'azalning keyingi baytida ham leksik-sintaktik tafovut ko'zga tashlanadi:

F-1: 161b, T-2: 28b varaqa	T-1: 24b varaqa	F-2: 2b, T-3: 29b, T-4: 2b, E-1: 38b varaqa
من و بی حاصلی کز علم و زهدم آنچه شد حاصل، یکایک در سر معشوق و می شد جمله حاصلها	من و بی حاصلی کز علم و زهدم آنچه حاصل شد، یکایک در سر معشوق می شد جمله حاصلها	من و بی حاصلی کز علم و زهدم آنچه حاصل شد، یکایک در سر معشوق و می شد جمله حاصلها

Men bir foydasiz kishida ilm va taqvodorlikdan nimayiki hosil bo'lgan bo'lsa, barchasi birma-bir ma'shuq va may ustida hosil bo'ldi.

Baytning birinchi misrasidagi "شده حاصل" va "حاصل شد" birikmalari hosil qiluvchi so'zlar shaklan bir xil bo'lsa-da, qurilishi jihatdan jihatidan farqlanadi. "حاصل شد" oddiy fe'l birikmasi bo'lib, fors adabiy tildagi odatiy so'z tartibiga mos tushadi. "شده حاصل" shakli esa inversiya hisoblanadi, ya'ni fe'l oldinga o'tkazilib so'z tartibi o'zgargan. Bu ayrim hollarda uslubiy urg'u berish maqsadida ishlatilishi mumkin. Ushbu baytda "شده حاصل" shakli baytning poetik ravonligini buzadi. Shu bois, "حاصل شد" variyanti to'g'ri hisoblanadi.

Shuningdek, baytning ikkinchi misrasida ham muhim tafovutlardan biri mavjud, ya'ni ayrim nusxalarda "معشوق و می شد" shakli qo'llanilgan bo'lsa, boshqa nusxalarda bog'lovchi "و" ishlatilmagan. "و" bog'lovchisining mavjudligi baytda ohangdorlikni ta'minlaydi. Shuningdek, bu jarayonni ketma-ketligini ham ifodalaydi ya'ni, shoir ilm va taqvodan orttirgan barcha yutuqlari ma'shuq va may ustida hosil bo'lganini bayon qiladi. Demak, "معشوق و می شد" shaklini qo'llash afzaldir.

Shuningdek, aksariyat qo'lyozmalarda ham aynan "حاصل شد" va "معشوق و می شد" shakllari yozilgan. Xulosa qilib aytganda F-2, T-3, T-4, E-1 nusxalardagi variant to'g'ri hisoblanadi.

Foniyning "Tatabbu' Mir Xusrav" g'azalida ham ba'zi tafovutlar uchradi:

F-1: 161b, F-2: 2b, T-2: 28b, T-3: 29b varaqa	T-1: 24b, T-4: 2b varaqa
خواهی چو قتل ای کج که حاجت تیغت نیست وه، این بس که بشکستی بته طرف کلاه چاک را	خواهی چو قتل ای کژ که حاجت تیغت نیست وه، این بس که بشکستی بته طرف کلاه چاک را

Ey kulohini qiya qo'ndirgan go'zal! Bizni qatl qilmoqchi bo'lsang, tig'ingning hojati yo'q, kulohingning bir burchini bukib qiya kiyganingning o'zi kifoyadir.

Ushbu baytning mazmuniy markazida "کج که" birikmasi turadi. Qo'lyozmalarning ayrimlarida ushbu birikmaning birinchisi "کژ", boshqalarida esa "کج" shaklida yozilgan. "کج" so'zi fors tilida "qiyshiq", "egri" ma'nolarini bildiradi. U she'riy matnlarda ko'chama ma'noda ishlatiladi. "کج که" – "bosh kiyimini qiyalatib kiygan kishi" ko'pincha noz, kibr, mag'rurlik va jozibani ifoda etadi. Ushbu baytda ham aynan ma'shuqaning nozi, jozibasi va e'tiborni o'ziga jalb etuvchi jihati tasvirlanmoqda.

“كز” so’zi esa fors tilida arxaik so’z bo’lib, odatda “notekis”, “egri” degan ma’nolarni bildirgan. Biroq adabiy leksikada kam qo’llangan. Hozirgi kunda fors tilida “ž” tovushi vaqt o’tishi bilan yo’qolib borayotgan tovush hisoblanadi. Shuning uchun “كزكه” iborasidan ko’ra “كجكه” shakli maqbulroqdir.

“كجكه” shakli to’g’ri va an’anaviy shakl bo’lib, ma’shuqaning sho’x va jozibali obraziga to’la mos hisoblanadi. Shuningdek, ushbu shaklning aksariyat manbalarda yozilishi ham matnning tayanch varianti sifatida tanlanishiga asos bo’lishi mumkin.

Foniyning Amir Xusrav Dehlaviy g’azaliga tatabbu’ tarzida yozilgan navbatdagi g’azalining to’rtinchi baytida quyidagi tafovut kuzatiladi:

F-1: 162a, F-2: 2b, T-1: 24b, T-2: 29a, T-3: 30a varaq	T-4: 2b, E-1: 40a varaq
بس دیر اگر میسر شد بزمگاه مقصود، ز انجا فلک برون راند بسیار زود ما را	بس دیر اگر میسر شد بزمگاه معشوق ز انجا فلک برون راند بسیار زود ما را

Maqsud bazmgohi ancha kechikib muyassar bo’ldi-yu, lekin falak bizni u erdan juda tezlik bilan quvib chiqardi.

“مقصود” arab tilidan o’zlashgan bo’lib, “niyat qilingan, orzu qilingan narsa”, “xohish”, “talab”, “niyat”³ kabi ma’nolarni bildiradi.

Ayniqsa, tasavvufiy she’riyatda “maqsad” ko’pincha Allohga, ruhiy komillikka yoki sof muhabbatga ishora qiladi.

“معشوق” so’zi ham arab tilidan o’zlashgan bo’lib, “suyukli”, “sevilgan”⁴ kabi ma’nolarni bildiradi. Bu so’z nafaqat dunyoviy sevgilini, balki tasavvufda ramziy ma’noda ilohiy go’zallikni, yorni ifodaladi. Ya’ni tasavvufiy she’riyatda esa ma’shuq deganda Alloh nazarda tutiladi.

Ushbu baytda agar “مقصود” so’zi qo’llansa, bazmgoh Allohga, sof sevgi manbaiga yetishish ramzi sifatida tushuniladi. Bu esa tasavvufiy mazmunga mos keladi.

Qo’lyozma nusxalarda qo’llanish bo’yicha “مقصود” so’zini ko’proq qo’llangan bo’lsa-da, E-1 va T-4 dagi “معشوق” shakli, g’azalning boshida ishq haqida gap ketganligi inobatga olinsa, to’g’ri hisoblanadi. Shuning bilan birgalikda, “معشوق” so’zining ishlatilishi g’azalning dastlabki baytlari bilan ham uzviylikni ta’minlaydi. Chunki bu g’azalda ishq mavzusi yetakchi o’rin tutgan. Shu bois nashrda “معشوق” shaklini tanlash maqbul hisoblanadi.

Yana bir leksik turfalik “Dar tavi Maxdum” g’azalining sakkizinchi baytida uchraydi. Ushbu bayt quyidagicha:

F-1: 180b, T-3: 46b	F-2: 17b, T-1: 37b, T-2: 46a, T-4: 17b
بده جام شراب ای ساقی دوران که میخواهد که از جسم حزين فرقت گزيند جان امشب	بده جام وداع ای ساقی دوران که میخواهد که از جسم حزين فرقت گزيند جان امشب

Ey davron soqiyasi, vido’ jomini berginki, bu kecha bechora jonim g’amgin jismimdan judo bo’lmoqni istaydi.

شراب arab tilidan o’zlashgan bo’lib, “may”, “boda”, “uzum suvi” kabi ma’nolarni bildiradi. Tasavvufiy adabiyotda esa “ishq, ilohiy muhabbat; ishqning g’alaba qilishi. Haqiqiy mahbub jilvalanib, muhabbat g’alaba qilgan paytda, solik qalbiga quyulib,

³ [Максуд чист? маъний Максуд - Вожаҷӯ / وژمچو](#)

⁴ [маъшук чист? маъний маъшук - Вожаҷӯ / وژمچو](#)

uni mast-u behush qiluvchi zavq, vajd va hollardir. Sharob – mastlikdan kinoya va Haq jazbasining muhabbatidir”⁵ G‘azal janrida “sharob” rindona mazmunga ega hisoblanadi. Yuqoridagi baytda “sharob jomi” so‘z birikmasi “ilohiy muhabbat bilan to‘la qalb”ni ifodalaydi.

وداع *so‘zi* ham arabcha so‘z bo‘lib, “xayrlashuv”, “yiroqlashish”, “ketish”, “vafot” ma’nolarini bildiradi. Adabiyotda “جام وداع” esa “o‘tkinchi dunyo bilan xayrlashuv”, “nafsoniy xohish-istaklardan voz kechish” kabi ma’nolarni ifodalaydi. Bu jihatdan “جام وداع” birikmasining qo‘llanishi mazmunni birinchi misra bilan bog‘laydi.

Baytning ikkinchi misrasi “bu kecha g‘amgin jismdan bechora jon ajralmoqchi”ligini ya’ni “o‘lim” jarayonini anglatadi. Shu nuqtayi nazardan “جام وداع” ayni baytning ma’nosiga muvofiq hisoblanadi. Ushbu baytda gap “jonning g‘amgin jismdan chiqishi” haqida borar ekan, “جام وداع” shakli qo‘llanishi maqbuldir.

Shu bilan birgalikda, ko‘pchilik manbalarda “وداع” shakli uchraydi. Xulosa qilib aytganda, “جام وداع” iborasi baytning asosiy mazmuniga mos keladi va F-2, T-1, T-2, T-4 nusxalaridagi variant to‘g‘ri hisoblanadi.

Alisher Navoiy “Devoni Foni” asari tarkibidagi tatabbu’ g‘azallarning qo‘lyozma nusxalari ustida olib borilgan matniy-qiyosiy tadqiqotlar bir nechta muhim xulosalarga asos bo‘ladi. Mazkur tahlillar qo‘lyozmalararo farqlarni aniqlash, to‘g‘ri va muallifga yaqin variantlarni tiklash imkonini beradi. Shuningdek, Alisher Navoiy ijodiy merosining ilmiy tadqiqi doirasida “Devoni Foni” asarining qo‘lyozma nusxalarini o‘zaro qiyosiy tahlil qilish – matnshunoslik fanining eng muhim vazifalaridan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 18-том. Девони Фоний – Т.: Фан, 2002. – 304 б.
2. Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 19 том. Девони Фоний – Т.: Фан, 2002. 330 б.
3. Alisher Navoiy. Devoni Foni. Parij milliy kutubxonasi. Inv: 285-V.
4. Alisher Navoiy. Devoni Foni. Parij milliy kutubxonasi. Inv: 1345.
5. Alisher Foni. Devoni Foni. Turk-islom muzeyi. Inv: 1952. V.4a.
6. Alisher Foni. Devon. Nuriusmoniya kutubxonasi. Inv: 3850.
7. Alisher Foni. Devon. Hakimo‘g‘lu Ali Poshsho. Inv: 00632.
8. Alisher Foni. Devon. Sulaymoniya kutubxonasi. Lala Ismoil kolleksiyasi. Inv: 00469.
9. <https://vazhaju.tj>
10. علی شیر فانی. کتابخانه مرکزی دانشگاه تهران. ش 2866. ص 1. دیوان فانی هروی.

⁵ Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 20 томлик. Девони Фоний – Тошкент, Фан, 2002. 19 том. Б.327.